

MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING “HUSNU DIL” DOSTONI VA UNING BADIY AĦAMIYATI

Xolova Kamola Furqat qizi

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar, 39-o`rta umumta`lim maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII asr II yarmida yashab ijod etgan Muhammadniyoz Nishotiyning “Husnu Dil” asari haqida fikr-mulohazalar keltiriladi. Bu asarning badiiy o`ziga xos xususiyatlari talqin qilingan.

Kalit so`zlar: Muhammadniyoz Nishotiy, “Husnu Dil” asari, asarda uchraydigan majoziy obrazlar, munozara janri, badiiy tasvir usuli

Nishotiyning adabiy faoliyati XVIII asrning II yarmida kechdi. U Xorazm adabiy hayotining sermahsul vakillaridan biridir. Uning nomi va asarlari XX asrning 60-yillarida kashf etildi.

Nishotiy ko`z o`ngimizda ham lirik shoir, ham dostonnavis, ham masal-munozara asarlari muallifi sifatida namoyon bo`ladi. Uning “Husnu dil” dostoni Navoiydan so`nggi davr epik poeziyasining eng yirik va ancha go`zal namunalaridan biridir. Nishotiy o`zining shu asari muqaddimasida Xorazm diyorida tavallud topib, madrasa tahsilidan so`ng qozi va a`lamlilik lavozimlarida ishlaganligini, Xorazmda notinch yillar boshlanib, yashash va ijod qilish qiyinlashib ketganligidan ko`ngliga yaqin bir mansabdor do`stining maslahati va ko`magi bilan Buxoroga ko`chib kelganligi va o`z dostonini shu yerda yozganligi haqida so`z yuritadi:

Bor edi Xorazm diyori yerim,
Ondin edi yaxshi-yomon guharim...
Charxi duni nogoh o`lub badmijoz,
Dun elig`a berdi namolu rivoj.
Xullas, o`lub mulki vatandin judo,
Soldum O`zum g`urbati shiddat aro.
Toki Buxoro sari qo`ydim qadam,
Oh, bu xoriy aro bo`ldim adam.
Garchi erur manzili dilkash base,
Lek musofirg`a emas xush base...

Bizgacha Nishotiyning lirik she`rlari, “Qushlar munozarasi” asari hamda “Husnu dil” dostoni yetib kelgan. Nishotiyning “Husnu dil” dostoni tarkibida keltirilgan “muddati tarixni etsam bayon, “Xatmi Dilu husn”dur ey nuktadon”

Tarix sanasiga doir baytdan asar 1192 hijriy, 1778 -melodiyda yozilganligi ma`lum bo`ladi. Uni, shoirning e`tiroficha, yozish uchun ko`p muddat ketmagan:

Qildim ani nazm eturg`a qiyom,
O`tti mashaqqat-la besh oy tamom.

Dostonning 16 ming baytga yaqin ekanligi hisobga olinsa, Nishotiyning asar ustida o`ta qattiq zahmat chekkanligi, shoirlik hofizasi ancha kuchli bo`lganligi anglashiladi.

Asar 62 bobdan iborat, shoir har bir bobga nasriy sarlavha qo`ydi. So`ng voqeani she`riy yo`lda bayon etdi. U aruzning musaddas bahrida yozilgan. Uning I,II bobida hamd va n`a`tlar, buyuk hamsanavis shoirlar ta`rifi, Nishotiyning vatani sanalmish Xorazm diyori madhi, so`z san`atining sehrlı kuchi tasviri beriladi.

Dostondagi ellikka yaqin majoziy-timsoliy obrazlar orqali Aqlshohning o`g`li Dil (Fuod) bilan Ishqshohning qizi Husn oralarida sevgi sarguzashtlari, ular duch kelgan qiyinchiliklar, g`ayritbiy voqea-hodisalar, ezgulik kuchlari bilan yovuzlik kuchlari orasidgi kurash yarim sehrlı-fantastik lavhalar yordmida hikoya qilinadi. Asarning so`nggi fasllarida Dil bilaan Husn topishib, Aqlshoh bilan Ishqshoh sulhga, ittifoqqa kelishib, yoshlarning to`y bazmlari o`tkziladi. Ikki yoshning murodi maqsadlari ushaladi.

“Husnu dil” dostoni boshqa dostonlardan farqlantirib turuvchi bir xususiyat shundaki, unda ishtirok etuvchi personlar insonning g`ichki va tashqi qiyofasi(siyрати va suvrati, botini va zohiri) dil, Husn, Ishq, aql, gesu; fazilat va psixik holatlari- nazar, karashma, on, himmat, qomat, Vafobonu, Nafsbonu, Vahmi balo, xayol, ishq, raqib, noz, og`ush, sabr kabi tushunchlar bilan bog`liq.

Nishotiy o`z asarining to`y bazmlari qismida bir necha masal munozaralar ham keltiradi. Shahboz bilan Bulbul, Nay bilaan Shamshod, Kosayi Chin bilan Nargiz, Gul bilan Daf, Binafsha bilan Chang o`rtalarida davom etgan bahsu munozaralarda kamtarlik, kibrlanmaslik, xush fazilatlik masalalari talqin qilinadi. Ularning har birini masal-hikoya deyish mumkin.

Xullas, Nishotiy xilma-xil majoziy obrazlar, tasvirlar orqali insoniy fazilatlarni ulug`lashga intiladi, adolatparvarlik, tinchlik, mardlik, sadoqat g`oyalarini targ`ib etadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev B. Xoksor va Nishotiy.-S 1960.
2. Nishotiy. Husn va Dil.Lirika.-T.1967.
3. Nishotiy. Masallar va munozara.-T,1987.